



UDK: 364.042(575.1)

Fotimaxon MAMATQULOVA,

Tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: fotimamatqulova95@gmail.com

FarDU professori, s.f.d M.M.Abdurahmonova taqrizi asosida

ANALYSIS OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN WORKING WITH LOW-INCOME FAMILIES AND POSSIBILITIES OF IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN

Annotation

This article conducts a comprehensive comparative analysis of advanced international experiences in social protection for low-income families and examines possibilities for their application to Uzbekistan. The research covers poverty reduction approaches across five major regional groups: Scandinavian countries (Sweden, Norway, Denmark, Finland) with their high social protection standards; major European welfare states (Germany, UK, France); Central Asian countries (Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan); and Asian models (Japan, India, South Korea). Each experience is evaluated through three dimensions: coverage, effectiveness, and adaptability to Uzbekistan's conditions. Evidence-based recommendations are provided for strengthening Uzbekistan's social protection system.

Key words: Poverty reduction, low-income families, international experience, Scandinavian model, conditional cash transfer, Central Asian social protection, social grants, Uzbekistan, mahalla system.

АНАЛИЗ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА РАБОТЫ С МАЛООБЕСПЕЧЕННЫМИ СЕМЬЯМИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО РЕАЛИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация

В данной статье проводится комплексный сравнительный анализ передового международного опыта социальной защиты малообеспеченных семей и изучаются возможности его применения в Узбекистане. Исследование охватывает подходы к сокращению бедности в пяти крупных региональных группах: скандинавские страны; ведущие европейские социальные государства; страны Центральной Азии и азиатские модели (Япония, Индия, Южная Корея). Каждый опыт оценивается по трём параметрам: охват, эффективность и адаптируемость к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: Сокращение бедности, малообеспеченные семьи, международный опыт, скандинавская модель, условные денежные трансферты, социальная защита в Центральной Азии, Узбекистан.

KAM TA'MINLANGAN OILALAR BILAN ISHLASHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI TAHLILI VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy himoyaning ilg'or xalqaro tajribalarining keng qamrovli qiyosiy tahlili o'tkaziladi va ularni O'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqot beshta asosiy mintaqaviy guruh bo'yicha kambag'allikni qisqartirish yondashuvlarini qamrab oladi: Skandinaviya davlatlari; yirik Yevropa farovonlik davlatlari; Markaziy Osiyo va Osiyo modellari. Har bir tajriba uch o'lcham bo'yicha baholanadi: qamrov, samaradorlik va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyati.

Kalit so'zlar: Kambag'allikni qisqartirish, kam ta'minlangan oilalar, xalqaro tajriba, Skandinaviya modeli, shartli naqd pul yordami, Markaziy Osiyo ijtimoiy himoyasi, ijtimoiy grantlar, O'zbekiston, mahalla tizimi.

Kirish. Hozirgi kunda dunyoda kambag'allik global muammolardan biri bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Kambag'allikni qisqartirish masalasi muhim ahamiyat kasb etib, xalqaro tashkilotlar, davlatlar va fuqarolik jamiyatlari diqqat markazida, bu borada turli mamlakatlardan samarali strategiyalar va dasturlar ishlab chiqilgan [1].

Butun dunyo hamjamiyati tomonidan kambag'allikka qarshi kurashish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Mingiyillik Deklaratsiyasi (2000) qabul qilindi. Unda daromadi yashash darajasidan past bo'lgan odamlar ulushini kamaytirish talab qilindi. O'zbekistonda ham Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev: "Biz aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allik mavjudligini birinchi marta ochiq tan oldik va yordamga muhtoj kishilarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgiladik" deb ta'kidladilar [2].

Dunyo miqyosida kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha turli model va yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning samaradorligi va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada Skandinaviya davlatlari, Yevropa davlatlari, Osiyo va Markaziy Osiyo davlatlarining ilg'or tajribalari tahlil qilinadi va O'zbekistonga tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kambag'allikni qisqartirish sohasida xalqaro tadqiqotchilar muhim hissa qo'shganlar. Nobel mukofoti sovrindori Abhijit Banerji va Esther Duflo ularning "Poor Economics" asarida kambag'allik tuzoqlaridan chiqish yo'llarini empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilishgan. S.Fan o'zining tadqiqotlarida "kambag'allikning ko'payishi davom etar ekan, taraqqiyot sekinlashadi va dunyo bo'ylab notekis iqtisodiy vaziyatlar yuzaga keladi", deb ta'kidlagan. U faqatgina qishloq xo'jaligiga e'tibor qaratgan

holda xalqaro tajribalar va kambag'allikdan chiqishning turli yo'llarini hisobga olish yetarli emasligini ko'rsatib bergan [3].

B.K.Zaripovning "Kambag'allikni qisqartirishning ilg'or tajribalari" maqolasida Skandinaviya davlatlarining ijtimoiy himoya modeli atroflicha o'rganilgan [4]. Harun Bhorat va Aalia Kassim Janubiy Afrikaning farovonlik muvaffaqiyati tarixini o'rganib, ijtimoiy grantlarning kambag'allik va tengsizlikni kamaytirishdagi rolini isbotlagan. Ularning tadqiqotiga ko'ra, grantlardan foydalanganlarning ko'plari – ayniqsa eng kam daromadli 40% aholi – manfaatdor bo'lib, grantlar kambag'allik va tengsizlikni sezilarli darajada kamaytirishga yordam berdi [5].

1-jadval

Skandinaviya davlatlarining kambag'allikni qisqartirish bo'yicha asosiy yondashuvlari

| Davlat | Kambag'allikka qarshi yondashuvlar | Erishilgan natijalar |
|-------------|---|---|
| Shvetsiya | Bepul ta'lim va tibbiy xizmat; yuqori soliq stavkalari orqali ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish; ota-ona nafaqasi va bola nafaqasi tizimi | Kambag'allik darajasi juda past; insoniy rivojlanish indeksi dunyoda eng yuqorilardan |
| Norvegiya | Neft fondi orqali iqtisodiy barqarorlik; keng qamrovli ijtimoiy sug'urta tizimi; faol mehnat bozori siyosati | Ijtimoiy tenglik darajasi yuqori; kambag'allik minimal; Gini koeffitsienti eng past |
| Daniya | Yuqori soliq siyosati; flexicurity modeli – ish bilan ta'minlash dasturlari; keng ijtimoiy ta'minot tizimi | Ishsizlik va kambag'allik darajasi juda past; farovonlik darajasi yuqori |
| Finlyandiya | Minimal ish haqi va ijtimoiy nafaqalar; sifatli ta'lim tizimi (PISA reytingida birinchi o'rin); universal asosiy daromad tajribasi | Kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik minimal; ta'lim tizimi dunyo standarti |

Manba: Zaripov B.K., 2024 asosida muallifning jadvali

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv va amaliyot asosidagi tadqiqot (evidence-based research) metodlaridan foydalanilgan. 15 dan ortiq davlatning ijtimoiy himoya modellari o'rganildi: Skandinaviya davlatlari (4), Yevropa davlatlari (3), Osiyo davlatlari (3) va Markaziy Osiyo davlatlari (4).

Har bir davlatning tajribasi uchta mezon bo'yicha baholandi: qamrov (coverage) – dasturning aholining qancha qismini qamrab olishi; samaradorlik (effectiveness) – kambag'allik darajasini qisqartirishdagi o'lgangan natijalari; O'zbekistonga moslashtirish imkoniyati (adaptability) – madaniy, iqtisodiy va institutsional moslik darajasi.

Tadqiqot davomida BMT, Jahon banki, OECD va Yevropa Ittifoqining rasmiy hisobotlari, shuningdek davlatlarning milliy statistika organlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Natijalar jadvallar va taqqoslama tahlillar ko'rinishida ifodalandi.

Tahlil va natijalar. Yevropa rivojlangan davlatlarining – Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiyaning – ijtimoiy

3-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarining kambag'allikni qisqartirish bo'yicha asosiy yondashuvlari

| Davlat | Kambag'allikka qarshi yondashuvlar | Erishilgan natijalar |
|--------------|---|--|
| Qozog'iston | Yo'naltirilgan ijtimoiy yordam dasturi; raqamli oila kartasi; ish bilan ta'minlash va yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish; Yangi Ijtimoiy Kodeks | Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash raqamlashtirildi; pensiya va nafaqa miqdorlari oshirildi |
| Qirg'iziston | Ijtimoiy kontrakt dasturi; nogironlar uchun inklyuziv xizmatlar; UNICEF bolalar himoya dasturi; cash+ agro dasturi | Kambag'al oilalar mikrobyuznes boshlashdi; bolalar himoyasi nazoratga olindi |
| Tojikiston | Maqsadli ijtimoiy yordam dasturi; pensiya va nogironlik nafaqalari; bolalar nafaqasi; bepul oziq-ovqat yordami | Kam ta'minlangan oilalar qatlami dastur orqali qamrab olindi; grantlar orqali ish o'rinlari yaratildi |
| Turkmaniston | Pensiya va imtiyozli nafaqalar; favqulodda holatlarda yordam; inklyuziv ijtimoiy xizmatlar; universal nafaqalar | Himoyaga muhtoj aholi qamrab olindi; naqd puldan plastik kartaga o'tkazilishi korrupsiyaning oldini oldi |

Manba: Muallifning jadvali xalqaro manbalar asosida tuzildi

Osiyo davlatlaridan Yaponiyaning majburiy pensiya sug'urta tizimi 20-59 yosh oralig'idagi shaxslardan majburiy pensiya sug'urtasi to'lovlarini yig'ib, ularning kelajakda mehnat layohatini yo'qotganda o'z pensiyalarini olishlariga zamin yaratadi. O'zbekistonda kelgusi 30 yillik davrda

Markaziy Osiyo davlatlarida ham ijtimoiy himoya sohasida muhim tajriba to'plangan. Qozog'iston Respublikasida "Yo'naltirilgan ijtimoiy yordam" dasturi raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Qirg'izistonda "Ijtimoiy kontrakt" dasturi kambag'al oilalarni tadbirkorlikka jalb qilish va mikrobyuznesni qo'llab-quvvatlashi bilan ajralib turadi [6].

Osiyo davlatlaridan Yaponiyaning majburiy pensiya sug'urta tizimi, Hindistonning "100 kunlik ish kafolat dasturi" va Janubiy Koreyaning "Oilaviy yordam dasturi" so'nggi yillarda muhim natijalarga erishgan samarali dasturlar sifatida xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi [7].

dasturlarini o'rganib chiqib, O'zbekiston sharoitida tatbiq etilishi orqali bir qator natijalarga erishish mumkin. Germaniyada ishsizlik holatini nazoratga olish va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha maxsus dastur muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturda ishsizlik nafaqasi oluvchi fuqarolarga bir qator shartlar qo'yiladi: ish bilan ta'minlash markazi uchrashuvlarini o'tkazib yuborgan taqdirda fuqaroga sanksiya – cheklov joriy etiladi [10].

Buyuk Britaniyada kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga Universal to'lov orqali 6 turda yordam beriladi. Xususan: bolalar nafaqasi, kiyim-kechak va oziq-ovqat harajatlari uchun kuponlar, mahalliy soliqlar uchun chegirmalar, kuz-qish mavsumida kommunal xizmatlar uchun chegirmalar. Fransiyada kam ta'minlangan hamda ijtimoiy himoya muhtoj aholi qatlamiga tibbiy harajatlarning 70% qismi universal tibbiy sug'urta orqali qoplanadi. Noqonuniy yashayotgan muhojirlarga ham bepul tibbiy xizmatlar taqdim etiladi [11].

qariyalarning soni sezilarli darajada o'sishi kutilmoqda. Shu sababli majburiy pensiya sug'urtasini O'zbekiston sharoitida amaliyotda qo'llash ijobiy jarayonni yuzaga keltiradi [12].

Hindistonning "100 kunlik ish kafolat dasturi" orqali qishloq hududlarida ishsizlik holati muvozanatga olib kelindi

va nazoratga olindi. Ushbu dasturni O'zbekiston sharoitida qo'llash albatta samarali natija beradi. Bu dasturni mobil ilova orqali yo'lga qo'yilsa, qishloq hududlaridagi ish beruvchi va ish izlovchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarga yo'l ochiladi va 4-jadval

Osiyo davlatlarining kambag'allikka qarshi yondashuvlari

| Davlat | Kambag'allikka qarshi yondashuvlar | Erishilgan natijalar |
|----------------|--|---|
| Yaponiya | Bolalar nafaqasi va tibbiy xizmat; majburiy pensiya sug'urta tizimi (20-59 yosh); nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash rag'batlantirish | Kambag'allik xavfida yashovchi fuqarolar daromadi o'sdi; nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan bandligi yaxshilandi |
| Hindiston | Qiz bolalarni ta'limda rag'batlantirish; o'rta ta'limda bepul tushliklar; tibbiy xizmat; qishloq aholisiga 100 kunlik ish kafolati | Kam ta'minlangan oilalar oziq-ovqat bilan ta'minlandi; maktablarda qatnashish darajasi oshdi |
| Janubiy Koreya | Kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi; tibbiy xizmat va turar joy bilan ta'minlash; ish bilan ta'minlash dasturlari; oilaviy yordam dasturi | Tibbiy xizmatlar to'liq qamrab olindi; nogironlar va bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy tenglikni mustahkamladi |

Manba: Muallifning jadvali ilmiy manbalar asosida tuzildi

Xulosa va takliflar. Har bir davlatning ijtimoiy himoya dasturlari doirasida amalga oshirilgan ishlar kelib chiqishi, hududiy va iqtisodiy holati jihatdan o'ziga xosdir. Shu sababli O'zbekiston sharoitida rivojlangan mamlakatlar tajribasidan o'bek mentalitetiga mos xususiyatlaridan foydalanish muhim jarayon hisoblanadi. Nobel mukofoti sovrindori Abhijit Banerji ta'kidlaganidek, O'zbekistondagi mahalla tizimi har bir muhtoj oilani kambag'allikdan olib chiqish bo'yicha o'zining noyob retseptiga ega [14].

Tahlil natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalar ishlab chiqildi: birinchidan, Skandinaviya modeli muvaffaqiyatining asosi – yuqori soliqlar orqali ijtimoiy dasturlarni barqaror moliyalashtirish va universal xizmatlar ko'rsatish ekanligi; ikkinchidan, Xitoy tajribasi shuni

ishsizlik darajasi pasayadi. Janubiy Koreyadagi "Oilaviy yordam dasturi" O'zbekiston hududida targ'ib qilinishi nogironligi bo'lgan shaxslarni va ularning oilalarini jamiyatga integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi [13].

ko'rsatadiki, kambag'allikni qisqartirish uchun faqat ijtimoiy nafaqalar berish yetarli emas – iqtisodiy o'sish va bandlikni oshirish birga olib borilishi lozim; uchinchidan, Markaziy Osiyo davlatlarining tajribasi O'zbekiston uchun eng yaqin va moslashtirish nuqtai nazaridan eng qulay manba ekanligi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: birinchidan, Skandinaviya modeli asosida sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini barcha uchun bepul qilish yo'lida izchil qadam tashlash; ikkinchidan, Qozog'iston "Yo'naltirilgan ijtimoiy yordam" modelini o'rganib, O'zbekistondagi skoring tizimiga yangi ko'rsatkichlarni qo'shish; to'rtinchidan, Hindiston "100 kunlik ish kafolati" dasturini mobil ilova orqali qishloq hududlarida sinovdan o'tkazish.

ADABIYOTLAR

1. BMT. Mingiyillik Rivojlanish Maqsadlari Deklaratsiyasi. Nyu-York, 2000.
2. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent: O'zbekiston, 2024. B.209.
3. Fan S., Cho E.E.Y. Paths out of poverty: International experience. Journal of Integrative Agriculture, 20(4), 2021. P.857-867.
4. Zaripov B.K. Kambag'allikni qisqartirishning ilg'or tajribalari. Iqtisodiyot va turizm jurnali, 18-jild, 4-son, 2024. B.187.
5. Bhorat H., Kassim A. Janubiy Afrikaning farovonlik muvaffaqiyati tarixi II. Brookings, 2014. B.1-2.
6. Karatayeva R. Kazakhstan Quadruples Social Assistance Budget for 2025. Orda.kz, 2025.
7. Yaponiya. Hayotni himoya qilish to'g'risidagi qonuni. 3 va 8-modda. 1950.
8. Mahatma Gandhi National Rural Employment Guarantee Act. Hindiston, 2005.
9. Kim W.H. va boshqalar. The World report on Disability and South Korea. AJPMR, 2014.
10. Wikipedia. Harambee. Kenya, 1963. <https://en.wikipedia.org/wiki/Harambee>.
11. The French social protection system. EURAXESS France, 2024. <https://www.euraxess.fr>.
12. Yaponiya. Hayotni himoya qilish to'g'risidagi qonuni. Tokyo, 1950.
13. Shin D.J., Cha B.S., Kim B.H.S. Efficient Expenditure Allocation. Sustainability, 2020.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-sentabrdagi nutqidan. <https://president.uz>.